| <b>ISMAILOV TIMUR KUATBAEVICH, SULTAMURATOV QALLIBEK, SAGINBAEV SULTANBEK TURDIBAY O'G'LI</b>                                          |     |
| Ekologik mehmonxonalar xizmat korsatish faoliyati davomida atrof -muhitga ta'sirini organish. ....                                     | 545 |
| <b>Abidova Dilfuza Igamberdievna</b>                                                                                                   |     |
| Mamlakatimizda soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirish bo'yicha amaliy tahlil hamda takomillashtirish yuzasidan takliflar ..... | 551 |
| <b>Normurzayev Umid Xolmurzayevich</b>                                                                                                 |     |



# MAMLAKATIMIZDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA AMALIY TAHLIL HAMDA TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN TAKLIFLAR

**Normurzayev Umid Xolmurzayevich**

I.f.d.dotsent, Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha inspeksiya soliq bosh inspektori

ORCID: 0009-0001-0130-8766

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada mamlakatda soliq sohalarida ko'p yillardan buyon soliq ma'murchiligini takomillashtirish bo'yicha rivojlantirish sarhisobi, biznes doiralarning ishonchini yanada mustahkamlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlarni takomillashtirishda hududlararo soliq inspeksiyasini o'rni va ahamiyati yoritilgan. O'zbekiston soliq tizimida amalga oshirilayotgan ayrim muhim islohotlar o'rganilib, xorij tajribasi, mamlakatimizda uni qo'llash bo'yicha ilmiy-amaliy xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** soliq siyosati, soliq tushumlari, tahlila-tahlil, xavflar, samaradorlik, raqamli platforma, usullar va vositalar, tahlil, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

**Abstract:** The article summarizes the country's long-term progress in improving tax administration in the tax sphere, emphasizes the role and importance of the interregional tax inspectorate in improving large-scale reforms aimed at further strengthening the trust of business circles. Some important reforms implemented in the tax system of Uzbekistan have been studied, scientific and practical conclusions and proposals have been developed based on foreign experience and its application in our country.

**Keywords:** tax policy, tax revenues, analysis, risks, efficiency, digital platform, methods and tools, analysis, optimization, tax incentives, tax rate.

**Аннотация:** В статье подведены итоги многолетнего прогресса страны в совершенствовании налогового администрирования в налоговой сфере, подчеркнуты роль и значение межрегиональной налоговой инспекции в совершенствовании масштабных реформ, направленных на дальнейшее укрепление доверия деловых кругов. Изучены некоторые важные реформы, реализуемые в налоговой системе Узбекистана, разработаны научно-практические выводы и предложения на основе зарубежного опыта и его применения в нашей стране.

**Ключевые слова:** налоговая политика, налоговые поступления, анализ, риски, эффективность, цифровая платформа, методы и инструменты, анализ, оптимизация, налоговые льготы, налоговая ставка.

## KIRISH.

Soliq siyosati strategiyasi orqali soliq tizimida daromadlarni oshirish qobiliyatini oshirish hamda davlat xarajatlarining barqarorligini ta'minlash, rivojlanayotgan davlatlarning fiskal siyosatini kuchaytirish, adolatli va inklyuziv soliq tizimini joriy etish, soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishda raqamli platformalardan samarali foydalanish kabilar bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlarining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi. Bundan tashqari, ushbu islohotlar ko'pincha iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan, investitsiyalarni rag'batlantiradigan va davlat funksiyalari uchun yetarli daromad yig'ilishini ta'minlaydigan yanada samarali, shaffof va adolatli soliq tuzilmasini yaratish zarurati bilan bog'liq.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI.

A.Fedorov. [1] fikricha, "ma'muriy yukni kamaytiradigan va yirik soliq to'lovchilarning investitsiya faolligini rag'batlantiradigan soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar taklif etgan, amaldagi soliq imtiyozlarini sezilarli darajada kengaytiradigan va to'ldiradigan hamda o'z investitsiya manbalarini ko'paytiradigan yirik soliq to'lovchilarning investitsiya faoliyatini soliq orqali rag'batlantirish usullari va uslublarini ishlab chiqqan, ularning samaradorligini baholagan"

V.G.Bayborodina [2] "soliq islohotlari – soliq tizimini keng ko'lamli qayta qurish va uni boshqarish mexanizmini o'zgartirish asosida soliq munosabatlarining cheklangan yoki tubdan o'zgarishi sifatida" ta'riflaydi.

I.A.Mayburov [3] “soliq islohoti soliq tizimini tubdan o'zgartirishni davlat soliq siyosatining yangi mazmuniga moslashtirish” deb ta'kidlaydi.

N.M.Dementeva [4] soliq siyosatini davlat iqtisodiy siyosatining in'ikosi ekanligini, u mustaqil ahamiyatga egaligi va soliqning ilmiy nazariyasiga asoslanishi lozimligini ta'kidlaydi. “Amalga oshirilayotgan soliq siyosatining natijalari ko'p jihatdan davlat o'z iqtisodiy siyosatiga qanday tuzatishlar kiritishga majbur ekanligini, soliq tizimini qanday qurish kerakligini belgilaydi”

Karp M.V [5] Soliq siyosati davlatning o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi umumiy moliyaviy siyosatining tarkibiy qismi bo'lib, soliq sohasidagi davlat faoliyati konsepsiyasi, soliq mexanizmi, soliq tizimini boshqarish kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi.

O.Sitnikovaning fikricha, [6] “konsolidatsiyalashgan soliq to'lovchilar guruhiga kiritishda aktivlarini tan olish yoki maxsus qayta baholash zarur, guruhga kirishdan oldin korxonaning zararlarini o'tkazish tartibi ishlab chiqilishi lozim, konsolidatsiyalashgan soliq to'lovchining moliyaviy-xo'jalik faoliyatining bir xil qiymatga ega bo'lgan sub'ekt sifatida xalqaro e'tirof etilishiga alohida e'tibor qaratilishi lozim”.

Yu.Darkina [7] yirik soliq to'lovchilarning xususiyatlari sifatida to'xtalib, “yirik soliq to'lovchilarga quyidagi xususiyatlar xosdir: katta pul oqimi, keng ko'lamli hujjatlar aylanmasi, soddalashtirilgan tizim bo'yicha soliqqa tortiladigan turli tarkibiy bo'linmalarning integratsiyasidan foydalanish, mamlakat ichida ham, chet elda ham turli firmalar bilan hamkorlik mavjudligidir”.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan tahliliy, ilmiy abstraktsiya, taqqoslama tahlil usullaridan foydalanildi

## TAHLIL VA NATIJALAR

Respublikada adolatli, shaffof, uzoqqa mo'ljallangan va xalqaro andozalarga javob bera oladigan soliq tizimini yaratishga qaratilgan soliq islohotlari iqtisodiy, huquqiy jihatdan har tomonlama asoslangan hamda soliq to'lovchilar uchun qulay va manfaatli ekanligini ko'rsatmoqda.

Birinchi navbatda, tadbirkorlik subyektlari va investorlar faoliyatini soliq sohasida kafolatlashning huquqiy asosi yaratilib, yangi Soliq konsepsiyasi, Soliq kodeksi va 150 dan ortiq qonun, Farmon, qaror va boshqa me'yoriy hujjatlar qabul qilindi.

Bu esa tadbirkorlik subyektlari yanada davlatimiz tomonidan katta e'tibor qaratilayotganligidan dalolat beradi. Biz mazkur maqolamizda bugungi kunda qonunchilikda uchirayotgan mammolarni o'rganib chiqqan xolda mazkur takliflarni berdik.

1.Muammo: Soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun moliyaviy sanksiyalar qat'iy miqdorlarda belgilanmaganligi sabab bo'lmoqda.

1. Soliqni kamroq to'lash maqsadida, korxonalarda ishlovchi xodimlar sonini yashirish, shuningdek, soliq hisobotlarida ish haqi summasini kamaytirib ko'rsatish, xatto mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoridan kam ko'rsatish holatlari uchramoqda. Ma'lumot uchun: 2024-yilda soliq organlari tomonidan o'tkazilgan 1,1 mingta sayyor soliq tekshiruvlarida 1,4 mingta noqonuniy ishchilar soni aniqlangan. Mazkur holat bo'yicha 3,7 mlrd. so'm miqdorida (aksariyat holatlarda rasmiylashtirilmagan ishchi xodimlar tomonidan ish haqi to'g'risida ma'lumot taqdim etilmaganligi sababli mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori 1 baravaridan soliq bazasi aniqlanib) moliyaviy jarima qo'llanilgan.

Taklif: Soliqqa oid quyidagi huquqbuzarliklar uchun qat'iy miqdorda jarimalar belgilash:

mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi xodimlarni hamda mehnatga haq to'lash fondini soliq hisobotida aks ettirmaganlik – har bir xodim uchun, yer maydonlaridan hujjatlarsiz yoxud yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilganidan kattaroq hajmda foydalanish uchun mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 10 baravari miqdorida belgilash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Soliq tekshiruvlarini o'tkazish jarayonida norasmiy xodimlar tomonidan ish haqi va ishlayotgan davri to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etmaslik yoki noto'g'ri taqdim etish holatlari uchramoqda. Shu sababli amaldagi qonunchilik (Soliq kodeksi 223-modda) bo'yicha chora ko'rish imkoni bo'lmayapti.

Amaldagi tartib bo'yicha „A.O.J“ MChJ ning 12 nafar norasmiy ishchisi uchun eng kam oylik ish haqi miqdori (1155 000 so'm)dan kelib chiqib ish haqi hisoblab oxirgi 12 oyga ko'paytirganda 166,3 mln.so'm soliq bazasi shakllanadi hamda ushbu summadan 20 foiz ya'ni 33,3 mln.so'm jarima qo'llaniladi.

Taklif etilayotgan tahrir bo'yicha 12 nafar ishchi eng kam oylik ish haqi miqdori (1155 000 so'm)ning 10 baravari (11550 000 so'm)dan kelib chiqib jami 138,6 mln.so'm ya'ni qo'shimcha 105,3 mln.so'm jarima qo'llaniladi.

2. Muammo: Ayrim soliq to'lovchilar tomonidan yer maydonlaridan hujjatlarsiz yoki kadastr hujjatlarida ko'rsatilgan yer maydonidan kattaroq hajmda foydalanish holatlari uchrab turibdi. Ma'lumot uchun: 2024-yilda 10,4 mingta ob'ektda 3 487,8 gektar yer maydoni, 2025-yilda 10,8 mingta ob'ektda 3787,4 gektar yer maydoni hujjatsiz yoki hujjatda ko'rsatilganidan ortiqroq egallangan aniqlangan.



Taklif: Soliqqa oid quyidagi huquqbuzarliklar uchun qat'iy miqdorda jarimalar belgilash:

mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi xodimlarni hamda mehnatga haq to'lash fondini soliq hisobotida aks ettirmaganlik – har bir xodim uchun, yer maydonlaridan hujjatlarsiz yoxud yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilganidan kattaroq hajmda foydalanilganlik uchun mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 10 baravari miqdorida belgilash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Qonunchilikka asosan yer maydonlaridan hujjatlarsiz yoxud yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilganidan kattaroq hajmda foydalanilganda Soliq kodeksining 429-moddasiga asosan soliq stavkasi belgilangan stavkaning 4 baravari miqdorida belgilanadi.

Taklif etilayotgan tahrir bo'yicha 10,8 mingta obyektga ortiqcha egallangan yer maydoni uchun hisoblangan soliq summasi (585,1 mlrd.so'm)ga qo'shimcha ravishda (har bir holatga eng kam ish haqining 10 baravari, ya'ni 11550000 so'mdan) jami 125,4 mlrd.so'm jarima qo'llanilishi ushbu turdagi huquqbuzarliklarning kamayishiga olib keladi.

3. Muammo: Soliqdan qochish maqsadida, aksariyat korxonalar tomonidan foydali qazilmalarni noqonuniy qazib olish, shuningdek qazib olingan foydali qazilmalar hajmini soliq hisobotida aks ettirmaslik holatlari uchun yetarli ta'sir chorasi mavjud emas.

Ma'lumot uchun: 2024-yilda noruda foydali qazilmalar haqiqiy hajmini aniqlash bo'yicha 489 ta korxonada o'tkazilgan 836 ta nazorat tadbirlarida aniqlangan qazilma hajmi 19297,7 ming m.kub bo'lsa, soliq hisobotida 13258,0 ming m.kub ko'rsatilgan (farq-6 039,8 ming m.kub), undirilgan soliq summasi 17,3 mlrd.so'mni tashkil etgan.

Taklif: Foydali qazilmalarni noqonuniy qazib olish yoki tashish yoxud qazib olingan foydali qazilmalar hajmini soliq hisobotida aks ettirmaganlik uchun yuridik shaxslarga mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 30 baravari miqdorida, jismoniy shaxslarga mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 10 baravari miqdorida belgilash.

Ushbu turdagi huquqbuzarliklar birinchi marta aniqlanganda tadbirkorlik sub'ekti ogohlantirilishi hamda bu borada qat'iy summada jarima belgilanishi o'z navbatida ushbu turdagi huquqbuzarliklarning kamayishiga olib keladi. 2024-yilda 836 ta holat bo'yicha mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 30 baravari miqdorida jarima qo'llanilganda 29,0 mlrd.so'mni tashkil qiladi.

4. Muammo: Kameral soliq tekshiruvi jarayonida soliq organlarida mavjud bo'lmagan hujjatlarni soliq to'lovchidan talab qilish vakolati bo'lmaganligi sababli, tekshiruv samaradorligi pasayib ketishiga hamda mavzuli soliq auditi soni oshib soliq to'lovchilardan jarima undirish holati ko'payib ketmoqda.

Ma'lumot uchun: 2023-yil davomida o'tkazilgan kameral soliq tekshiruvlari natijasi 9117,0 mlrd.so'm qo'shimcha soliqlar hisoblangan (soliq to'lovchilardan hujjatlar talab qilib olish va chaqirtirish huquqi mavjud bo'lganda) bo'lsa, 2024-yil mobaynida (vakolat mavjd bo'lmaganda ushbu ko'rsatkich 1 302,7 mlrd.so'mni tashkil etib, 7 barobarga kamayib ketgan. Shuningdek, 2022-2023-yil yanvar-sentyabr oylarida 81,6 mingta kameral soliq tekshiruvlari o'tkazilgan bo'lsa, shundan 62,2 mingtasiga hujjatlar taqdim etish to'g'risida so'rov-noma yuborilgan.

Taklif: Kameral soliq tekshiruvi o'tkazish jarayonida soliq organlarida mavjud bo'lmagan ma'lumotlarni soliq to'lovchidan talab qilib olish huquqini berish.

Taklifning amaliyotga joriy qilinishi yiliga o'rtacha 3,5-4 trln.so'm soliqlar qo'shimcha hisoblanishi imkoniyatini yaratadi va ish samaradorligini oshiradi. Soliq to'lovchi tomonidan taqdim qilingan hisobotlarning to'g'riligini ulardan olingan hujjatlar asosida o'rganish natijasida bahsli-munozarali holatlarga barham beriladi, mavzuli soliq auditi kamayadi, jarima undirilmaydi.

Rossiya, Germaniya, Italiya va AQShda kameral tekshiruv davomida soliq to'lovchidan soliq organlarida mavjud bo'lmagan qo'shimcha hujjatlarni talab qilish vakolati mavjud. Jumladan, Rossiya Soliq kodeksiga muvofiq kameral tekshiruvi jarayonida soliq organi soliq to'lovchidan hisobga olish hujjatlarini, taqdim etilgan soliq hisobotiga va hisobga olish hujjatlariga doir tushuntirishlarni, shuningdek soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lash bilan bog'liq boshqa axborotni so'rab olishi mumkin.

5. Muammo: Belgilangan muddatdan kechikib ro'yxatdan o'tgan elektron shaklda xizmatlar ko'rsatuvchi chet el yuridik shaxslarga nisbatan soliq summasi hamda jarima hisoblash tartibi mavjud emas.

Taklif: O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatishni boshlagan davrdan boshlab o'ttiz (30) kun ichida ro'yxatdan o'tmagan taqdirda, soliq organi tomonidan chet el yuridik shaxsining faoliyat ko'rsatgan oldingi davrlari uchun soliq summasi va jarima hisoblash va undirish.

Taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida elektron xizmat ko'rsatuvchi chet el yuridik shaxslarining belgilangan muddatlarda davlat ro'yxatidan o'tish va soliqlarni to'lash majburiyati ta'minlanadi (soliq summasi 39,0 mlrd.so'm, jarima summasi 18,2 mlrd.so'm).

Soliq kodeksining 279-moddasida elektron shaklda xizmatlar ko'rsatuvchi chet el yuridik shaxslarining ro'yhatdan o'tish tartibi belgilangan. Ma'lumot uchun: 2022-yildan boshlab O'zbekistonda jami 363,9 mlrd.

so'mlik qiymatda xizmatlar ko'rsatgan 5 ta kompaniya shu kungacha ro'yxatdan o'tmagan. Turkiyada soliq organi chet el korxonasi ro'yxatdan o'tishi kerak bo'lgan davr uchun QQS hisoblaydi va unga nisbatan jarima qo'llaydi.

Soliq ma'murchiligi va raqamlashtirish.

1. Muammo: Ro'yxatdan o'tgan chet el korxonalari tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotlarida aks ettirilgan soliq bazasi va soliq summolari to'g'riligini aniqlashda yetarli ma'lumotlar mavjud emas.

Ma'lumot uchun: Tijorat banklardan olingan ma'lumotlarga asosan jismoniy shaxslar tomonidan 2023-yil va 2024-yilning yanvar-iyun oylari davomida xorijiy kompaniyalarga to'langan to'lovlar hamda korxonalar tomonidan taqdim etilgan QQS hisobotlari o'zaro taqqoslanib, tahlil qilinganda, 13 ta kompaniyada 106,7 mlrd. so'm soliqlar kam hisoblanganligi aniqlandi.

Taklif: Elektron shaklda xizmat ko'rsatuvchi chet el kompaniyalari tomonidan taqdim qilinadigan soliq hisobotlariga daromadlar tarkibi (tranzaksiyalar bo'yicha to'liq ma'lumot) to'g'risidagi ma'lumotlarni jadval ko'rinishida elektron shaklda ilova qilinishini majburiy qilib belgilash.

Taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida, elektron xizmat ko'rsatuvchi xorijiy kompaniyalardan budjetga yiliga o'rtacha 106,7 mlrd.so'm soliqlar tushumini ta'minlash imkoniyati paydo bo'ladi. Soliq nazorati tadbirlarini amalga oshirish samaradorligi oshadi. O'zbekiston Respublikasida QQS to'lovchisi sifatida ro'yxatdan o'tmasdan faoliyat yuritayotgan kompaniyalarni aniqlash va belgilangan tartibda choralar ko'rish imkoniyati paydo bo'ladi. Tailand Soliq kodeksida chet el kompaniyalari tomonidan taqdim qilinadigan hisobotda daromadlar tarkibi (tranzaksiyalar bo'yicha to'liq ma'lumot) ko'rsatilishi majburiy qilib belgilangan.

2. Muammo: Davlat tomonidan ajratilgan subsidiyalar asosida qoplangan ipoteka kreditlariga to'lovlar bo'yicha soliq imtiyozidan foydalanishning to'g'riligini "subsidiya.idm.uz" saytidan foydalanib solishtirish orqali aniqlanadi. Shu sababli deklarasiyalarni ko'rib chiqishda qo'shimcha vaqt va resurs talab etilmoqda.

Ma'lumot uchun: 2024-yilda 29126 ta, 2025-yil 1-aprel holatiga 40 404 ta fuqarolar tomonidan ipoteka krediti bo'yicha 102,6 mlrd.so'mni (158,6 mlrd.so'm) imtiyoz qo'llab qaytarib berishi bo'yicha deklarasiya taqdim etilgan. 2024-yil bo'yicha 74,0 mlrd.so'm va 2025-yil 1-aprel holatiga 135,7 mlrd.so'm mablag' budjetdan qaytarib berilgan.

Taklif: Boshlang'ich to'lovi va foizlarining bir qismi davlat tomonidan ajratilgan subsidiyalar asosida qoplangan ipoteka kreditlariga to'lovlar bo'yicha soliq imtiyozidan foydalanishda "subsidiya.idm.uz" dasturiga integratsiya qilinishini ta'minlash hamda subsidiya berilganligini tekshirish jarayoni avtomatlashtirish.

Taklif amaliyotga joriy qilingan taqdirda, subsidiya berilganligini tekshirish jarayoni avtomatlashtiriladi, ish hajmi kamayadi va soliq to'lovchilarga mablag'lar o'z vaqtida qaytarib berish imkonini beradi. Ma'lumot uchun: Olingan ipoteka kreditlarini va ular bo'yicha hisoblangan foizlarni qoplashga yo'naltirilgan ish haqidagi imtiyozdan foydalanish maqsadida, deklarasiya taqdim etgan jismoniy shaxslar 2025-yil 1-aprel holatiga 40,4 ming nafarni va qo'llanilgan imtiyoz summasi 158,6 mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan deklarasiya taqdim etganlar soni 11,3 ming nafarga (138,7 %) va qo'llanilgan imtiyoz summasi 61,7 mlrd. so'mga (183,5 %) oshgan.

3. Muammo: Qurilishda arxitektura-rejalashtirish topshirig'i, loyiha smeta hujjatlari, qurilish ob'ektini topshirish-qabul qilish dalolatnomasi raqamlashtirilmagan. Dalolatnoma raqamlashtirilib undagi ma'lumotlar soliq organiga real vaqt rejimida yetkazib berilmaganligi sababli, qurilish korxonalarida bajarilgan ish hajmi, ishlatilgan materiallar, ishchilar soni kabi ma'lumotlarni o'rganib, taqdim qilingan hisobot ma'lumotlari bilan solishtirish imkoniyati mavjud emas.

Taklif: Qurilishga oid bo'lgan arxitektura-rejalashtirish topshirig'i, loyiha smeta hujjatlari, qurilish ob'ektini topshirish-qabul qilish dalolatnomalari raqamlashtirilib "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimi orqali soliq organlariga real vaqt rejimida yetkazib berish.

Taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida budjetga 1,5 trln.so'm qo'shimcha mablag' tushushi imkoniyati paydo bo'ladi.

Qurilish korxonalari tomonidan aynan bir obyekt uchun sarf qilingan xom-ashyo materiallari, ishchi kuchi, qurilishning boshlanishi va tugashi to'g'risidagi smeta ma'lumotlarini olishda turli xil muammolar va noaniqliklar yuzaga kelmoqda. Xususan, qurilish ishlari uchun rasmiylashtirilmagan (kirim qilinmagan) tovarlarni saqlash, ulardan foydalanish va realizatsiya qilish holatlari uchramoqda.

Misol uchun, 2024-yilda o'tkazilgan sayyor tekshiruvlarida 43 ta holatda mehnat faoliyati rasmiylashtirilmagan, kirim qilinmagan tovarlarni realizatsiya qilish hamda olingan tushum summasini hisobga olish registrarida aks ettirmaslik holatlari aniqlanib ularga 110,6 mlrd.so'm soliq hisoblangan.

4. Muammo: Markaziy bank tomonidan jismoniy shaxslarning elektron xizmat ko'rsatuvchi xorijiy yuridik shaxslarga amalga oshirilgan tranzaksiyalari to'g'risida soliq organlariga real vaqt rejimida ma'lumot taqdim qilish tizimi mavjud emas.

Shu sababli, elektron xizmat ko'rsatuvchi xorijiy yuridik shaxslarning taqdim qilgan soliq hisobotlari to'g'riligini o'rganish imkoniyati mavjud emas. Tijorat banklar soliq organlarining so'roviga asosan Bank siri vaji bilan ma'lumotlarni taqdim etilmayapti.



Taklif: Markaziy bank tomonidan jismoniy shaxslarning elektron xizmat ko'rsatuvchi xorijiy yuridik shaxslarga amalga oshirilgan tranzaksiyalari to'g'risida har choraklik ma'lumotlarni Soliq qo'mitasiga real vaqt rejimida taqdim qilish majburiyatini belgilash.

Taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida yiliga budjetga o'rtacha 100 mlrd.so'm tushum tushishi imkoniyati yaratiladi. Jismoniy shaxslarning xalqaro to'lov kartalari (Visa, Master card va h.k.) orqali 2023-yilda 22,7 mln.AQSh dollari hamda 2024-yilda 20,4 mln.AQSh dollari miqdoridagi pul mablag'lari chet el yuridik shaxslari bank hisob raqamlariga o'tkazgan.

Janubiy Koreyada banklar soliq majburiyatlarining bajarilishini avtomatik ravishda tekshirish uchun transchegaraviy raqamli to'lovlar to'g'risidagi ma'lumotlarni soliq organlariga topshirishlari shart. Fransiyada elektron to'lovlar to'g'risidagi qonun to'lov tizimlari (PayPal, Stripe va b.) norezidentlarga to'lovlar to'g'risidagi ma'lumotlarni soliq xizmatiga uzatishni talab qiladi.

5. Muammo: Umumovqatlanish korxonalarida mavjud avtomatlashtirilgan hisobga olish axborot tizimil (R – keeper, JOWi) shakllangan aylanmalar (sotilgan mahsulotlar aylanmasi) soliqqa tortilmasdan qolmoqda.

Taklif: Umumovqatlanish korxonalarida mavjud avtomatlashtirilgan hisobga olish axborot tizimida (R – keeper, JOWi) shakllangan har bir buyurtma uchun avtomat ONKM cheki yoki elektron hisobvara-faktura shakllantirish.

Taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida har bir buyurtma uchun avtomat ONKM cheki shakllanganda tovar aylanma hajmi 3 trln.so'mga oshib undan budjetga 800 mlrd.so'm tushumni ta'minlash imkoniyati yaratiladi.

Ma'lumot uchun, respublika bo'yicha jami 18586 ta umumovqatlanish korxonalaridan 950 tasining (5,1%) "r-keeper" tizimi soliq organlariga integrasiya qilgan. Ularning 2025 yil yanvar-aprel oylari tovar aylanmasi hajmi 831,3 mlrd.so'mni yoki o'rtacha bir korxonaga 875 mln so'mni tashkil etmoqda.

Qozog'istonda 2020-yil 1-yanvardan boshlab barcha POS-tizimlar fiskal qurilmalar bilan integrasiyalashgan va fiskal ma'lumotlar real vaqt rejimida soliq organlariga uzatiladi. Ozarbayjonda savdolar va hisob-kitoblar bo'yicha barcha ma'lumotlar soliq organlariga yuboriladi. Bunday talablar, Rossiya, Janubiy Koreya, Turkiya, AQSh, Ispaniya, Italiya va boshqa dalatlarda joriy etilgan.

6. Muammo: Soliq to'lovchilar kontragentlarni tanlash chog'ida lozim darajada ehtiyotkorlik qilishi shart bo'lsada, mazkur qoidani chetlab o'tib, shubhali korxonalar bilan moliyaviy aloqaga kirib, budjetga to'lanadigan QQS summasini sun'iy ravishda kamaytirishmoqda yoki ortiqcha to'lov hosil qilib budjetdan qoplashmoqda. Tadbirkorlik reytingini baholashda mazkur salbiy holat hisobga olinmagan.

Taklif: Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlashda:

Amaldagi qonunchilikka, tadbirkorlik subyektlarining kontragentlarni tanlash chog'ida lozim darajada ehtiyotkorlik qilmasdan QQS to'lovchisi maxsus guvohnomasining amal qilishi faol bo'lmagan kontragentlardan xarid qilingan tovarlar bo'yicha to'langan (to'lanishi lozim bo'lgan) QQS summasining hisobga olingan bo'lsa — 10 ball chegirish.

Taklifning amaliyotga joriy qilinishi soliq to'lovchilarga tarbiyaviy ahamiyat kasb etib, budjetga yiliga o'rtacha 1 trln.so'm soliq tushumini ta'minlash imkoniyatini yaratadi. Tahlillarga ko'ra, 2024-yilda 6 mingta sub'ekt tomonidan 1 trln.so'mlik QQS summasi shubhali korxonalar reestriga kiritilgan 755 ta kontragentlardan hisobga olingan.

7. Muammo: Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilar (klaster, fermer, dehqon xo'jaliklari) tomonidan yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini kirim qilmasdan bozorlarda naqd pulga sotib soliqdan qochish holatlari uchramoqda.

Taklif: Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini (paxta va g'alladan tashqari) elektron hisobvara-fakturalar orqali realizatsiya qilingan miqdoridan kelib chiqqan holda subsidiya ajratishni joriy etish.

Bunda, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilar tomonidan tegishli ma'lumotlar "Agroplatforma" axborot tizimi va "Agrar va oziq-ovqat sohasidagi vaziyatni baholash" elektron platformalariga kiritish majburiyatini belgilash.

Taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida budjetga o'rtacha 250 mlrd.so'm qo'shimcha mablag' tushushi imkoniyati yaratiladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilar (klaster, fermer, dehqon xo'jaliklari) tomonidan yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini buxgalteriya hujjatlarida kirim qilinishi ta'minlanib, soliqdan qochishning oldi olinadi.

8. Muammo: Tan olingan soliq qarzi bo'yicha yuridik shaxslar avtotransport vositalari xatlanganda, ularning harakatdan to'xtatib turish imkoniyati yo'qligi sababli amalga oshirilgan xatlov samarasiz bo'lib qolmoqda. Bundan tashqari, joyida bo'lmashligi natijasida avtotransport vositalarini xatlovga olish imkoniyati mavjud emas.

Taklif: Soliq organlariga avtotransport vositalarini masofadan turib xatlash vakolatini berish va ularning ichki ishlar organlari tomonidan majburiy to'xtatilishini ta'minlash.

Taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida budgetga qo'shimcha 300 - 400,0 mlrd. so'mlik soliq qarzi-ning o'z vaqtida undirilishiga, shuningdek 2,3 trln.so'mlik soliq qarzi mavjud bo'lgan 13 mingta yuridik shaxslar nomiga rasmiylashtirilgan 44 mingdan ortiq transport vositalarini xatlanishi va to'xtatilishi hisobiga qarzdorliklarni o'z vaqtida undirish imkoniyati yaratiladi.

Soliq qarzi paydo bo'lishining oldini olishda tezkorlik choralarining yo'qligi natijasida yuridik shaxslar soliq qarzi 01.01.2025-yil holatiga oldingi yilga nisbatan 2,4 trln.so'mga, yakka tartibdagi tadbirkorlar 312,8 mlrd. so'mga, jismoniy shaxslarning yer, mol-mulk va deklarasiya asosida hisoblangan soliqlar bo'yicha soliq qarzi 157,2 mlrd.so'mga oshgan. Ma'lumot uchun:

2025 -yilning 1-yanvar holatiga davlat ijrochilarining ish yuklamasining yuqoriligi va ular tomonidan soliq qarzini undirish bilan bog'liq 160,1 mingta (jamiga nisbatan 61,8 %) 3,1 trln so'mlik (50,7 %) ijro hujjatlari qonunchilikda belgilangan ikki oydan buyon, shundan 495,3 mlrd.so'mi 6 oydan 1-yil muddatgacha, 888,9 mlrd.so'mi bir yildan ortiq muddatlarda ijro qilinmasdan qolmoqda.

Qozog'iston, Belorussiya va Rossiyada soliqdan qarzi mavjud bo'lgan jismoniy shaxslarga transport vositalari va ko'chmas mulkni ro'yxatga olish ta'qiqlangan.

9. Muammo: Soliq qarzdorligi yuzasidan kelib tushgan e'tirozlar asosli va asossiz bo'lishiga qaramasdan undiruvning sud tartibida amalga oshirilishiga to'g'ri keladi.

Soliq qarzini sud tartibida undirish soliq to'lovchining zimmasiga davlat boji ko'rinishida da'vo bahosining 2 foizi miqdorida, biroq BHMning 1 baravaridan kam bo'lmagan miqdorda qo'shimcha xarajatlarni yuklaydi. 2023-2024-yillarda soliq to'lovchilar zimmasiga to'lash uchun 8,0 mlrd.so'mdan ortiq davlat boji hisoblangan.

Taklif: Soliq hisobotlari va soliq tekshiruvlari natijasida yuzaga kelgan soliq qarzini tan olingan soliq qarzi sifatida e'tirof etish.

Taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida tan olingan soliq qarzi soliq organi tomonidan undirilib, boj to'lovlari tadbirkorning ixtiyorida qoladi va ortiqcha ovoragarchilikning oldi olinadi, shu bilan birga budgetga qo'shimcha 100 - 200,0 mlrd.so'mlik soliq qarzining o'z vaqtida undirilishiga imkoniyat yaratiladi.

Soliq kodeksining 60-moddasiga asosan tan olingan soliq qarzi sifatida soliq qarzini uzish to'g'risidagi talabnomaga e'tiroz bildirilmagan qarz sifatida e'tirof etiladi. Soliq tekshiruvlari natijasida yuzaga keladigan soliq qarzi jarayonlarida: tekshiruvda, qaror qabul qilish va ko'rib chiqishda soliq to'lovchi bevosita ishtirok etadi. Qarzdor korxona talabnomaga e'tiroz bildirilganda, soliq organi mol-mulkga taqiq qo'yish huquqidan foydalana olmaydi. Bu esa qarzdor tomonidan mol-mulkini 60 kun muddatda balansidan chiqarib begonalashtirishiga sharoit yaratadi.

Gruziyada agar soliq qarzi soliq (bojxona) deklarasiyasi asosida yuzaga kelgan, soliq organining talabnomasi yoki qarori ustidan shikoyat qilish muddati o'tkazib yuborilgan bo'lsa, soliq qarzi tan olingan sifatida e'tirof etiladi.

Latviyada soliq ma'muriyati o'z qarori bilan soliq qarzini va uni undirish bilan bog'liq xarajatlarni, agar soliq qarzi deklaratsiya, soliq nazorati (tekshiruv, taftish) natijalari bo'yicha yuzaga kelgan bo'lsa, bank, kredit muassasalaridagi hisobvaraqlaridagi hamda kassasidagi pul mablag'laridan, ko'chmas va ko'char mulklardan, shuningdek uchinchi shaxslarda turgan mulklaridan so'zsiz undirish vakolatiga ega.

10. Muammo: Amaldagi qonunchilikda, budget tashkilotlari tomonidan xalqaro moliya institutlari va xalqaro horijiy moliyaviy tashkilotlardan (XMI/ XHMT) jalb qilingan tashqi qarzi hisobidan amalga oshiriladigan loyihalar doirasida sotib olinadigan tovarlarni (xizmatlarni) realizasiya qilish bo'yicha aylanma, shuningdek ularni olib kirish 2028-yil 1-yanvarga qadar qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan bo'lib, to'langan QQS summolari tovar (xizmat) tannarxiga kiritilib QQS zanjirining uzilishiga olib kelmoqda.

Taklif: XMI/XHMT mablag'lari hisobidan amalga oshirilayotgan loyihalar doirasida bajarilayotgan ishlar uchun zarur bo'lgan tovar(xizmat)lar xarid qilinayotganda to'langan qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlarni bekor qilish.

Taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida 1 553 ta korxona tomonidan 1 866,4 mlrd.so'mlik tushumlar ta'minlanishiga xizmat qiladi. Loyiha doirasida ishtirok etayotgan korxonalar tomonidan imtiyozlar foydalanilmagan holda tovarlar (xizmatlar) QQS bilan xarid qilingan. Mazkur holatda XMI/XHMTning qarz mablag'lari hisobidan amalga oshirilayotgan loyihalar ishtirokchilariga to'langan QQS summasini hisobga olish, hamda hosil bo'lgan ortiqcha to'lov summasini qaytarish so'ralmoqda.

Shuningdek, Soliq kodeksining 267-moddasida realizasiya qilish bo'yicha aylanmalari soliqdan ozod etilgan tovarlar (xizmatlar) ishlab chiqarish va (yoki) realizasiya qilish chog'ida soliq to'lovchi tomonidan to'langan soliq summasi hisobga olinmasligi belgilangan.

Loyiha doirasida import qilinadigan tovarlar QQSdan ozod qilinganligi, ichki bozorda ushbu loyihalar uchun realizasiya qilinadigan tovarlar summasiga mos ravishda QQS summasi hisobga olinmasligi sababli mahalliy ishlab chiqaruvchilarga import tovarlar bilan raqobat qilish imkonini cheklamoqda.



## XULOSA VA TAKLIFLAR.

Yuqorida keltirib o'tilgan taklif O'zbekistonda 2026-yilda soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirish va raqamlashtirish amaliyotga joriy qilinishi soliq ma'murchiligini rivojlantirishga olib keladi deb hisoblaymiz.

### Adabiyotlar/Literatura/Reference:

1. Федоров Андрей Николаевич. Налоговое администрирование и стимулирование инвестиционной активности крупнейших налогоплательщиков. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидат экономических наук. Нижний Новгород 2010.
2. Кенэ Избранные экономические произведения.-М.Соцэкгз. 1960; Дж.М.Кейнс Общая теория занятости, процента и денег. – М.: 1993;
3. Камалнев Тимур Шамильевич. Налоговое администрирование крупнейших налогоплательщиков. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидат экономических наук. Москва 2009.
4. И.А.Майбуров Налоги и налогообложение: учебник для студентов вузов, обучающихся по специальностям; под ред. И.А.Майбурова.-М.: юнити-дана,2007.-655с.).
5. Юнак Алексей Алевтинович. Проблемы правового регулирования налогового контроля и учета крупнейших налогоплательщиков. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидат юридических наук. Москва 2009. с.12.
6. Н.М.Дементьева. налоговая политика государства. [https://nsuem.ru/science/publications/science\\_notes/issue.php?ELEMENT\\_ID=1689](https://nsuem.ru/science/publications/science_notes/issue.php?ELEMENT_ID=1689).,
7. Карп М.В Налоговый менеджмент: Учебник для вузов. – М.: Юнити-дана, 2001.– 39 с.
8. Ситникова Ольга Владимировна. Совершенствование налогообложения крупнейших консолидированных налогоплательщиков. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидат экономических наук. Москва 2012.
9. Дарькина Ю.А. Особенности налогового администрирования крупнейших налогоплательщиков. Interactive science. 3 (37) • 2019.
10. Soliq qo'mitasi ma'lumotlari. [www.soliq.uz](http://www.soliq.uz).
11. Нормурзаев У. Х. Солиқ имтиёзларининг самарадорлиги: назария, методология ва амалиёт. 08.00. 07 – Молия, пул муомаласи ва кредит. Иқтисодиёт фанлари бўйича фан доктори (DSc) диссертацияси автореферати. Тошкент. 2022.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. № 6**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)